

LINGVODIDAKTIKANING DOLZARB MASALALARI

**mavzusidagi xalqaro konferensiya
materiallari to'plami**

I



LINGVODIDAKTIKANING DOLZARB MASALALARI

I

TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“LINGVODIDAKTIKANING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to'plami
(2022-yil 18-may)

Toshkent – 2022

Lingvovidaktikaning dolzARB masalalari. I. Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2022. – 530 b.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti Lingvovidaktika kafedrasi tomonidan tayyorlangan.

Mas’ul muharrir:

L.R.Raupova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

B.R.Mengliyev – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

G.H.Hamroyev – Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, dotsent, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Sh.S.Abdiraimov – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD).

K.M.Mavlonova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasi dots.v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD).

I.A.Ishonxanova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasi o‘qituvchisi.

D.A.To‘rayeva – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasi katta o‘qituvchisi.

H.M.Ortiqova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasi o‘qituvchisi.

F.A.Saidova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasi o‘qituvchisi.

V.E.Alimbekova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasi o‘qituvchisi.

D.O.Israfilov – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasi o‘qituvchisi.

H.M.Baxtiyorova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasi magistranti.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti Kengashining 2022-yil 10-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

odatda deyarli hech qanday qiyinchiliksiz o‘qiy oladilar. Bu ularga so‘zlarni dekodlash va tanib olishdan farqli ravishda tushunish va lug‘atga o‘z sa’y-harakatlarini jamlash imkonini beradi. Talaba matndan ma’no topadigan malakali o‘quvchi bo‘lishi uchun u birinchi navbatda ravon o‘quvchi bo‘lishi kerak.

Lug‘at o‘qish paytida so‘zlardan ma’no olishni o‘z ichiga oladi. Aslini olganda, o‘quvchi parcha ichidagi so‘zlarni tushunmasdan, matndan ma’noni tushuna olmaydi yoki tuza olmaydi. So‘z boyligi kuchli bo‘lgan bola yanada ravon va maqsadli o‘qiy oladi. So‘z boyligi har kuni suhbat, o‘qish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatmalar va hayotiy tajribalar orqali o‘sib boradi. Bolalarga har kuni ovoz chiqarib o‘qish va tanlangan so‘zlarni aniq o‘rgatish kuchli lug‘at bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Gaplarni tushunish uchun so‘zlarni aniqlash juda muhimdir. Matnni o‘qish individual so‘zlarni aniqlash bilan boshlanadi. O‘quvchi har bir jumlaning ma’nosini birlashtirishi va baholashi kerak.

O‘qish savodxonligini rivojlantirishda ushbu omillar samarali natija beradi. Ona tili darsliklarida beriladigan matnlarni nafaqat qoidalarga ko‘ra, balki grammatikani aralashtirmagan holda ham tahlil qilish, o‘quvchilar matnda ishlatilgan so‘zlarning o‘z ma’nosini anglay olishlari yoki anglamaganliklariga e’tibor berish, bilim darajalarini aniqlash va to‘g‘ri yo‘nalish berish lozim. Zero, bola grammatik qoidalarsiz va badiiy ifodalarsiz ham o‘z fikrini bildira olsin, o‘qilgan yoki eshitilgan ma’lumotni to‘g‘ri tahlil qila olsin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anderson, R. C., & Freebody, P. Vocabulary knowledge. In: J. T. Guthrie (Ed.), Comprehension and Teaching: Research Reviews. Newark, DE: International Reading Association. 1981.
2. Bloom, P. How children learn the meanings of words. Cambridge, MA: MIT Press. 2000.
3. David Pearson va Gina Cervettining “The roots of reading comprehension instruction” maqolasi, Volume 79, 2017.

6-SINF ONA TILI DARSLARIDA MATN TUZULISHINI O‘RGATISHNING MAZMUN-MOHIYATI

Husnora Baxtiyorova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada matn tuzilishi, turli uslubdagi matnlarning til xususiyatlarini o‘rgatishning ahamiyati, 6-sinf ona tili darслarida matn tuzilishini o‘rganishga doir ta’lim mazmuni yoritilgan; topshiriglardan namuna keltirilgan.

Kalit so‘zlar: matn, matn tuzilishi, mazmun, uslub, leksik-grammatik vositalar, til birliklari.

Annotation

The article describes the structure of the text, the importance of teaching the linguistic features of different styles of texts, and the content of teaching the structure of the text in 6th grade mother tongue lessons; examples from assignments are given.

Keywords: *text, text structure, content, style, lexical-grammatical means, language units.*

O‘quvchilarning hodisalarini kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy tafakkurini, fikrlash doirasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda o‘quvchilarning o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va izchil ifodalab bera olishi muhim hisoblanadi.

Matn yaratish jarayoni nutq mexanizmiga bog‘liq bo‘lib, bu mexanizm ichki nutq faoliyati bilan bog‘liq jarayonni yuzaga keltiradi. Bu jarayonda “Mazmun – matn” sxemasini fikrlash boshqarib turadi. Muallif tinglovchiga yetkazib bermoqchi bo‘lgan axborotni ichki nutqida o‘yaydi, so‘zlarni miyasida idrok qiladi va uni tartiblab, bir fikr doirasida yoritib berishga harakat qiladi va bu jarayonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri aniq fikrga yo‘nalgan, izchil ifodalangan, ketma-ket kelgan gaplar zanjiridan tashkil topgan bog‘lanishli nutq yuzaga keladi.

N.I.Jinkin ichki nutqning ona tilida so‘zlash, bir-birini tushunish uchun juda zarur translyator-tarjimon apparat hisoblanilishini ta’kidlaydi va uni ikkinchi tilda fikr almashishda katta rol o‘ynashini eslatib o‘tadi: “Grammatik qoidalardan tashqari hamma insoniy tillar uchun qo‘llanadigan qoidalar ham bo‘lishi kerak... Bular mantiqiy qoidalar bo‘lib, tushunchalar orasidagi, gap bo‘laklari orasidagi, tema va rema orasidagi ma’noviy bog‘lanish orqali vujudga keladi”[Жинкин Н. И., 1982].

Dars jarayonida o‘quvchilardan olinadigan asosiy yozma matnlar: diktant, bayon, insho ko‘rinishida bo‘lib ularga umumjoriy qat’iy talab va nizomlar ishlab chiqilmagan.

Xususan, 6-sinf «Ona tili» darsligi [Mahmudov N. va boshqa., 2017]da matn va uning turlariga oid nazariy bilimlar berilgan bo‘lib, har bir matnning o‘ziga xos tuzilishi, qismlarga, xatboshilarga ajratilishi, har bir matnga oid til birliklari, ularning mazmuniy va grammatic butunligini ta’minlovchi so‘z, so‘z birikmasi, gap va ularni bog‘lovchi vositalar haqidagi nazariy va amaliy jihatlar ochiq qolgan. Ya’ni o‘quvchi darslikda berilgan ma’lumot orqali tasviriy matn, hikoya va muhokama matni nima? degan savolga javob oladi xolos, ularga xos xususiyatlar esa yetarlicha ohib berilmagan.

Bunday holat o‘quvchilarning matn tuzilishini noto‘g‘ri talqin qilishiga olib keladi, bu esa matn yaratish jarayonida ko‘plab xato va kamchiliklarni keltirib chiqaradi.

Kuzatishlar davomida ma’lum bo‘ldiki, o‘quvchilarga rasm asosida tasviriy matn yozish topshirig‘i berilganda, o‘quvchilar tasviriy matn emas, badiiy va so‘zlashuv uslubi yaqqol namoyon bo‘lgan hikoya matni yozishgan. (Tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichida o‘quvchilar yozgan matnlar asos qilib olindi). Bu kabi holatlar orqali o‘quvchilarning matn tuzilishi va unga xos xususiyatlar haqida bilim va ko‘nikmaga ega emasliklari yaqqol namoyon bo‘ldi.

Bilamizki, matn faqat bir xil shaklda emas, vaziyat, talab va insonning kundalik ehtiyojiga qarab turli ko‘rinishda yaratiladi.

Berilgan sarlavhadan kelib chiqib matn (insho)ga reja tuziladi. Bunda yozilayotgan matn boshidan oxirigacha badiiy matn bo‘lishi shart emas, o‘quvchi matnni real vaziyatda ko‘rgan ma’lumotlar asosida erkin ijodiy fikrlab yozishi va shu bilan birga yozayotgan matn tarkibida fikrini asoslash, dalillashi uchun mazmun bilan

bog‘lagan holda rivoyat, hadis, maqol va matallar, hikmatli so‘zlarni ko‘chirma gap shaklida kiritish, unda she’riy misralarni joylashtirishi maqsadga muvofiq[Mavlonova K, 2021].

M.M.Rixsiyeva matn tuzishga o‘rgatish tizimini ishlab chiqish va ta’lim mazmunini belgilash ishi ko‘p jihatdan matn yaratishga o‘rgatishning asosiy sharti hisoblangan kommunikativ ko‘nikma va malakalar hajmini tayin etish hamda ularning o‘zaro munosabatini aniqlashga bog‘liqligi aytib o‘tgan.

Metodik adabiyotlarda ona tili ta’limi mazmuni uchun tavsiya etilayotgan matn tuzilishiga doir tushunchalarni lingvistik ma’lumotlarga tayangan holda ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) matnning tashkiliy tuzilish jihatlari bilan bog‘liq tushunchalar;
- 2) matnning leksik-grammatik jihatdan tuzilishi bilan bog‘liq tushunchalar.

O‘quvchilarga matn tuzilishi haqidagi nazariy ma’lumotlarni mashq va topshiriqlar orqali o‘rgatish, ya’ni matn yaratishdan avval matn haqidagi tasavvur hosil qilish lozim. Buning uchun o‘quvchiga yaxlit matn berilib, ushu matnni tahlil qilish jarayonida uni mazmuniy qismlarga ajratish, har bir qismda aks ettirilgan ma’nomazmun, ularni yuzaga chiqaradigan til birliklari: so‘z, so‘z birikmalari, gap va gaplarni bir-biriga bog‘lovchi vositalarni aniqlash orqali matn haqidagi tasavvurlarini boyitib borish samarali usul hisoblanadi.

G.I.Kipshide o‘quvchilarni matn tuzishga o‘rgatishda til hodisalari bilan bog‘liq vazifalarni hal qilish kerakligini aytib o‘tadi. Xususan:

1. O‘quvchilarda fikrni so‘z, so‘z birikmasi, gaplar vositasida ifodalash malakalarini rivojlantirish.
2. Ularni muayyan izchillikda joylashtirishga o‘rgatish[Кипшиде Г.И., 1969].

Bu jarayonda o‘quvchilarga bir xil voqelikni vaziyatdan kelib chiqib, turli ko‘rinishda ifodalab bera olishlari nazarda tutiladi. Masalan, o‘quvchi o‘rtog‘ining tug‘ilgan kuniga yozgan tabrik hamda tug‘ilgan kun sabab dars qoldirishi oqibatida yozgan tushuntirish xatining mazmuni, gap qurilishi, unda qo‘llangan til birliklari tubdan farq qiladi. Bunda bir xil voqelik – tug‘ilgan kun asos qilib olinsa ham, vaziyatdan kelib chiqib ikki xil matn yaratiladi.

Shundan kelib chiqib, o‘quvchilarga matn tuzilishini sinflar kesimida darajalab o‘rgatish, ya’ni 6-sinf o‘quvchisi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan matnga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda yuqorida keltirilgan matnning tashkiliy va leksik-grammatik tuzilishi haqidagi bilimlarni ta’lim mazmunida aks ettirish kerakligini hamda matn tuzilishiga xos xususiyatlarni turli mashq va topshiriqlar va ularni qo‘llashga doir metodlar orqali shakllantirish kerakligini belgilab olindi.

Matn tuzish, tushunish va uni tahlil qilish o‘quvchi ongingin rivojlanishiga, tafakkurining kengayishiga, bog‘lanishli nutqini shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. va boshqalar. Ona tili. Umumiyo‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun. – Toshkent: Tasvir, 2017.
2. Mavlonova K.M. Content of developing students’ skills on text structure. // European scholar journal, 2021.

3. Yo'ldoshev, R.A., Rixsiyeva, M.M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.
4. Бекниязова, Н. Бошланғич синфлар она тили дарсларида ўқувчиларга матн яратишни ўргатиш методикаси (таълим ўзбек ва қорақалпоқ тилларида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Монография. Тошкент: Фан ва технологиялар, 2012.
5. Жинкин Н. И. Речь, как проводник информации. – М.: Наука 1982.
6. Зиёдова, Т.У. Матн яратиш технологияси. Монография. – Тошкент: Фан, 2008.
7. Кипшиде Г.И. Вопросъ развития связной русской речи учащихся грузинской школе на основе программных художественных текстов: Автореф. дис. канд. пед. наук. – М., 1969.

O'QUVCHILARDA TASVIRIY MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH ZARURATI

Zebiniso Davronova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ona tili darslarida tasviriy matn haqida berilgan ma'lumotlar va xorij manbalaridan o'r ganilgan ilmiy yangiliklar tahlil qilingan. Ona tili darslarida o'quvchilarining tasviriy matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish dolzarb masalalardan ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy matn, ko'nikma, Sheyn Mak Donnchaid, besh sezgi a'zosi, mavzu mohiyati, qayta tahrirlash, besh qismli reja.

Annotation

This article analyzes the information provided in the native language lessons about the descriptive text and scientific news from foreign sources. In native language classes, it is important to develop students' ability to create descriptive text.

Keywords: descriptive text, skill, Shane McDonnchaid, five senses, subject matter, revision, five-part plan.

Mamlakatimizda barcha sohalarda tub o'zgarishlar, yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda ona tili va unga oid yo'nalishlarda ham yangilanishlar va rivojlanishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, til o'qitish metodikasini takomillashtirish borasida, ta'lif mazmunining sifatini yanada oshirish, ilg'or tajribalarni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kun o'quvchilardan o'z fikrini mustaqil og'zaki va yozma bayon eta olishi, o'z mustaqil fikriga va keng dunyoqarashga ega bo'lishi talab qilinmoqda.

O'quvchining ona tilini o'zlashtirishda to'rt lisoniy malakan shakllantirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, ushbu to'rt lisoniy malakadan biri yozma nutqni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirish dolzarb masalalardan biridir. O'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishda ularning tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. O'quvchilarda ushbu ko'nikmani

| | |
|--|-----|
| Ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishning yondashuv va tamoyillari | 93 |
| Normuminova Dilobar | |
| O‘qish savodxonligining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar | 97 |
| Baxtiyorova Husnora | |
| 6-sinf ona tili darslarida matn tuzulishini o‘rgatishning mazmun-mohiyati | 100 |
| Davronova Zebiniso | |
| O‘quvchilarda tasviriy matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirish zarurati | 103 |
| Munavvarova Mohira Abduhalil qizi | |
| Ona tili darslarida yozma savodxonlikni rivojlantirishning yangicha usullari | 107 |
| Yo‘ldosheva Shahnoza | |
| Ravish so‘z turkumining maktab darsliklarida berilishi | 110 |
| Abdusattorova Farangiz | |
| 1-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida berilgan ayrim iboralarning ma’nolari..... | 114 |
| Xomidjonova Yulduzzon | |
| O‘quvchilarda eshitib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish zarurati | 116 |
| Nomozova Malika | |
| Ona tili ta’limida lingvisik malakani shakllantirishda nutqiy vaziyatning o‘rni | 120 |
| Botiraliyeva Mohinur | |
| Tinglab tushunishning o‘quvchilar og‘zaki nutqini shakllantirishdagi o‘rni | 123 |
| Tursunova Dildora | |
| O‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishning ahamiyati | 126 |
| Masharipova Nodira | |
| Grammatik tushunchalarni o‘rganishda o‘quvchilarning yozma nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish | 130 |
| Axatova Dilnoza | |
| Ijtimoiy tarmoqlarda yo‘l qo‘yiladigan xatoliklar ustida ishslash usullari | 134 |
| Lushiyeva Ro‘shana | |
| Ma’lumot-axborot hujatlari bilan ishslash muammolari | 137 |

II. IKKINCHI TIL VA CHET TILLARNI O‘QITISH METODIKASI MASALALARI

| | |
|---|-----|
| Niyozmetova Roza | |
| Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish | 141 |
| Koblanova A.Z. | |
| Stylistic nature of etiquette stereotypes in the field of language communication | 144 |
| Asilova Gulshan | |
| O‘zbek tili ta’limida tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish xususiyatlari..... | 149 |
| Гафуров Б.З. | |
| Лингводидактические основы сопоставительного анализа текстов | |
| Рекламы сферы медицины (на материале русского и узбекского языков)..... | 155 |
| Негматова М. М., Мингбоева О. А. (Тоҷикистон) | |
| Дидактическая игра как метод обучения..... | 159 |
| Жумашева Г.Х., Аллабаева А., Султанова У., Жумабоева Р. | |
| Обучение каракалпакскому языку, как основная форма коммуникации | |
| 166 | |
| Губайдуллин А.Ф, Машарипова В.С. | |
| Дидактическое использование театральной постановки в процессе обучения английскому языку..... | 170 |
| Хамирова Н.Т. | |

